

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKTGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Toshkent Moliya instituti magistri  
Olimboyeva.N.A*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda AKT ga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning samaradorligi tahlil qilingan. Ya’ni xorijiy investitsiyalarning mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri o’rganilgan. Bundan tashqari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so’zları:** *raqamli iqtisodiyot, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, raqamli texnologiyalar, zamonaviy menejment.*

**Аннотация:** В данной статье анализируется эффективность иностранных инвестиций в развитие цифровой экономики. То есть было изучено влияние иностранных инвестиций на развитие цифровой экономики в стране. Кроме того, были разработаны предложения по повышению эффективности иностранных инвестиций в развитие цифровой экономики и увеличению объема иностранных инвестиций, поступающих в экономику.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, иностранные инвестиции, инвестиционный климат, цифровые технологии, современный менеджмент.

**Annotation:** *This article analyzes the effectiveness of foreign investment in the development of the digital economy. That is, the impact of foreign investment on the development of the digital economy in the country has been studied. In addition, proposals have been developed to increase the efficiency of foreign investment in the development of the digital economy and increase the volume of foreign investment entering the economy.*

**Keywords:** *digital economy, foreign investment, investment climate, digital technologies, modern management.*


Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng samarali omillarda biri bu – xorijiy investitsiyalardir. Xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelish hajmini oshirish asosida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga erishish mumkin. “Xorijiy to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar globallashuvning asosiy drayveri va hozirgi global iqtisodiyotda eng muhim rolni o’ynaydi. U mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonini qo’shimcha kapital bilan ta’minlaydi va iqtisodiy o’sish darajasini oshiradi”<sup>21</sup>

<sup>21</sup> Hui-Ching Hsieh, Sofia Boarelli, Thi Huyen Chi Vu. The effects of economic policy uncertainty on outward foreign direct investment. International Review of Economics and Finance 64 (2019) p. 377–392.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni jadal rivojlantirish omillaridan biri bo'lib qolmasdan, u bir vaqtning o'zida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham ta'sir qiladi. Xorijiy investitsiyalar hajmi oshishi bilan mamlakatda raqamli iqtisodiyot ham rivojlanib boradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda «Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi».<sup>22</sup>

Raqamli iqtisodiyotga qisqacha qilib iqtisodiyotning raqamlashuvi ya'ni iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanishi deb ta'rif berish mumkin. Demak xorijiy investitsiyalar bilan mamlakatga yangi texnologiyalar kirib kelar ekan u albatta bu mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Mamlakatimizda qulay investitsion muhitni shakllantirishga qaratilgan islohatlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi ham ko'payib bormoqda.

Birgina 2019-yil holatida xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelish holatini tahlil qilinsa, unda quyidagi holatni kuzatish mumkin:



**1-rasm.Xorijiy investitsiyava kreditlarning o'zlashtirilishi (mln. AQSh doll.)<sup>23</sup>**

2019 yilda 86653,1 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSH doll.) yoki 2018 yilga nisbatan 2,5 marta ko'p asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi–45,7% tashkil etdi. 2019 yilda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning Yalpi ichki mahsulotga nisbati 16,9 % ni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 9,5 % punktga ko'paygan. O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 9803,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, undan 4205,4 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 42,9 % ini tashkil

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi», 2018-yil 29-dekabr .

<sup>23</sup> www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.35-pacm. Xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilishi (mln.AQSh doll.)

etgan. O'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 2019 yilda 37171,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilga nisbatan 3,6 martani tashkil qilgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning hajmi oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotida qulay investitsion muhitning shakllanib borayotganligi hamda investorlarga yana ko'plab imkoniyatlar yaratilib berilayotganligidan dalolat beradi. Bu o'z navbatida mamlakatda raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish hamda mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelish hajmini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflarni amaliyatga joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'larni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni muntazam takomillashtirish;
- respublikamizga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalarini taqdim etish tizimini takomillashtirish;
- raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga olib kiruvchi xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;
- energiya tejamkor va atrof muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamonaviy uskunalarini o'rnatish; mahalliy sharoitlarga mos keladigan ilg'or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o'zimizda yaratilayotgan ixtirolarni rag'batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag'lar yo'naltirish. Xorijiy investitsiyalar hajmining oshib borishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishga olib boruvchi asosiy omillardan biridir. Xorijiy investitsiyalar bilan birga mamlakatga ilg'or g'oyalar, yangi texnologiyalar hamda zamonaviy menejment tamoiyillari kirib keladi. Bu esa xorijiy investitsiyalarning mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi samarali vosita ekanligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirish eng muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi tegishli korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrdagi PQ-4937-sun qarori bilan tasdiqlangan 2021–2023 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga muvofiq soha bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida 8 ta investitsiya loyihalari doirasida jami 160 mln. dollarga yaqin investitsiya mablag'lari o'zlashtirilib, reja ko'rsatkichi 113 foizga bajarilishi ta'minlandi. Shundan, 80 mln. dollardan ortiq qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini tashkil etadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rinni tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati

tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda.

2020 yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining asosiy ko‘rsatqichlari Iqtisodiy raqamlarga nazar tashlanadigan bo‘lsak, o‘tgan yildagi natijalarni ijobiy deb baholasa bo‘ladi. AKT sohasida ko‘rsatilgan jami xizmatlar hajmi 10,6 trillion so‘mgacha yetib, 104% o‘sishini ko‘rsatdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 176 million dollargacha, ya’ni 130 foizgacha o’sdi.



2-rasm. 2020 yil AKT sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar.<sup>24</sup>

Yana bir muhim ko‘rsatkichlar:

- Kompyuter va dasturlash xizmatlari hajmi 2020 yil natijalari bo‘yicha 119 foizgacha o’sdi va 1,078 milliard so‘mni tashkil etdi (rejada — 920 million so‘m);
- Dasturiy mahsulotlar va xizmatlar eksporti hajmi 15,8 million dollargacha oshdi va 158 foiz o‘sish dinamikasini ko‘rsatdi (rejada — 10 million dollar);
- Axborot va aloqa sohasida ish haqi o‘sish dinamikasi ham 119 foizni ko‘rsatdi. Hozirgi kunda mazkur sohada o‘rtacha maosh 4 million so‘mni tashkil etadi (umumrespublika bo‘yicha ish haqi — 2,3 million so‘m);
- AKT sohasida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni yildan-yilga oshib boryapti: 2020 yil natijalari bo‘yicha ularning soni 269 ni tashkil etdi va 73 taga ko‘paydi.

2020 yilda Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihamalar bo‘yicha Vazirlik tomonidan jami 9 ta loyiha 177,5 million dollarga teng hajmida amalga oshirilib, 102 foiz o‘sish ko‘rsatqichni ko‘rsatdi (rejada — 174,02 million dollarga teng loyihamalar qiymati). Jumladan:

- To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiya asosida — 97,14 million dollarga teng loyihamalar (rejada — 94,5 million dollarga teng, o‘sish dinamikasi — 103 foiz);

<sup>24</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

- Hukumat kafolati ostida xorijiy kreditlar — 53,38 million dollarga teng loyihalar (rejada — 43,56 million dollarga teng, o'sish dinamikasi — 123 foiz);
- Korxonalarning o'z mablag'lari — 26,93 million dollarga teng loyihalar (rejada — 35,96 million dollarga teng, bajarish ko'rsatqichi — 75 foizni tashkil etdi).

2020 yilda AKT sohasida yana bir qator muhim yonalishlar boyicha ishlar amalga oshirildi.

Internet tarmog'ining milliy segmenti "UZ" domenida ro'yxatdan otgan veb-saytlarni tashkil etish orqali iste'molchilarga qulay xizmatlar ko'rsatish, yoshlarning onlayn tarzda bilim olishlari va aholiga elektron savdo tizimlari orqali xizmatlar ko'rsatish yo'lg'a qo'yildi.

Onlayn-to'lov tizimidagi ishlar ham yahshi ko'rsatqichlar bilan yakunlandi, ya'ni 2020 yilda onlayn-to'lov tizimlari orqali 299,3 million tranzaktsiyalar amalga oshirildi va jami 6,5 trillion o to'lov so'mni tashkil etdi.

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda Yagona portal orqali 176 ta elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda, ushbu xizmatlardan foydalanish uchun 15,1 mln. ta ariza-buyurtma kelib tushgan, bu davlat organlari bilan o'zaro aloqada aholining vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirishga yordam berdi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tizimi orqali hozirgi davrda aholiga 176 ta davlat xizmatlari ko'rsatiladi. 2020 yil yakunlari bo'yicha 15,1 milliona ta ariza-buyurtma bilan ish olib borildi. Yagona idoralararo ijro intizomi tizimi bo'yicha hozirgi vaqtida tizimga 4,4 mingdan ortiq davlat organlari va tashkilotlar, 30 mingdan ortiq foydalanuvchilar ulandi.

Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi. Bugungi kunda ushbu portal orqali 34,7 mingta murojaat kelib tushib, shulardan 33,6 mingtasi ko'rib chiqilgan. Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish yagona interaktiv portali faoliyati natijalariga ko'ra, o'tgan yili jami 34,7 mingta murojaat to'shgan bo'lsa, ulardan 33,6 mingtasi ko'rib chiqildi.

Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi ("saylov.gov.uz") joriy qilindi. Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 20,5 mln. dan ortiq fuqarolardan iborat Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati shakllantirilib, Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi bilan integratsiya qilindi. Hozirda Xitoyning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda 1 bosqichda Toshkent shahrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda "Xavfsiz shahar" loyihasining yagona texnologik platformasini yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.



### 3-rasm.Axborot texnologiyalarini rivojlantirish yo'nalishi.<sup>25</sup>

AKT sohasida 2020 yilda muhim ijtimoiy loyiha amalga oshirildi. Xitoy kompaniyasi bilan umumiy qiymati 11,8 million dollar miqdorida shartnoma imzolanib, Toshkent tibbiyat xodimlariga zamonaviy AKT va tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan 150 dona tez tibbiy yordam avtomobilari (reanimobil) yetkazib berildi va avtomatlashtirilgan tez tibbiy yordam xizmati boshqaruv tizimi joriy etildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil rivojlanishining yana bir muhim omillaridan biri sohada raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ichki va tashqi bozorlarda ilgari surish, innovatsion ishlanmalarini rag'batlantirishdir. Telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida yil yakuniga qadar 153,7 million dollar miqdoridagi loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Shu kunga qadar asosan telefon xizmatlarini ko'rsatuvchi 2G mobil tarmoqlarni kengaytirish vazifasi bajarilgan bo'lsa, hozir tarmoqning qamrovini oshirish bo'yicha loyihalar 3G/4G tarmoqlarini kengaytirishga yo'naltirilmoqda. Xususan, shu yilning o'zida 3 012 ta 2G baza stansiyalar 3G/4G standartiga modernizatsiya qilindi va 2 933 ga yaqin yangi baza stansiyalar o'rnatilib ishga tushirildi.



### 4-rasm. "Xavfsiz shahar" apparat-dasturiy kompleksi.<sup>26</sup>

<sup>25</sup> www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

Hozirda Xitoyning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda 1 bosqichda Toshkent shahrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb etgan holda "Xavfsiz shahar" loyihasining yagona texnologik platformasini yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757 (2017) 1879-1913.<https://www.nber.org/papers/w23757>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlarstrategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llabquvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" gi Farmoni. 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi O'RQ-598-son Qonuni, 3-modda.
4. A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot. – T. – O'quv qo'llanma.
5. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O'quv qo'llanma.
6. A.S.Azizov. (2021) To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviyiqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
7. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi "2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida" gi Parlamentga Murojaatnomasidan.
9. World Investment Report 2020. <https://unctad.org/webflyer/world-investment-report2020>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 yanvarda o'tkazilgan majlisdagi «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2017 y. 16.01.

<sup>26</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti